



BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA OILA, MAKTAB VA MAHALLANING O'RNI: BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALAR MISOLIDA

Tursunboyeva N.A.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17060611>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Avgust 2025 yil

Ma'qullandi: 28- Avgust 2025 yil

Nashr qilindi: 31- Avgust 2025 yil

KEYWORDS

barkamol shaxs, bog'cha yoshi, oila, maktabgacha ta'lim, mahalla, psixologik rivojlanish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada barkamol shaxs tarbiyasida oila, maktabgacha ta'lim muassasalari va mahalla o'rnining bog'cha yoshidagi bolalar (3-7 yosh) misolida ilmiy tahlili berilgan. Ilk bolalik davri psixologiyada shaxs rivojining hal qiluvchi bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Shu davrda bola nutqi, tafakkuri, hissiy olami va ijtimoiy xulqi intensiv rivojlanadi. Maqolada J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi, L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi, M. Montessorining "Menga o'zim qilishga imkon ber!" tamoyili hamda E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyalari asosida tahliliy yondashuv berilgan. Oila, bog'cha va mahalla hamkorligi orqali bolada mustaqillik, tashabbuskorlik, qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishining ahamiyati yoritilgan.

Shaxsning shakllanishida dastlabki bosqich – bog'cha yoshi (3-7 yosh) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Psixologlar ta'kidlaganidek, bu davrda bolaning bilish jarayonlari, hissiy olami, nutqi va ijtimoiy xulqi intensiv rivojlanadi. Aynan shu davrda bola o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi, mustaqillikka intiladi, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi. Shu bois bog'cha yoshidagi bolalarni tarbiyalash masalasi nafaqat oilaning, balki maktabgacha ta'lim muassasalari va mahallaning ham birligidagi vazifasiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun ham aynan shu bosqichda bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini ta'minlashni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Asosiy qism

1. Oila – bog'cha yoshidagi bolalar tarbiyasining tabiiy maktabi

Bog'cha yoshida bola asosan oilaviy muhit ta'sirida rivojlanadi. J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, 2-7 yosh oralig'ida bola "preoperatsional bosqich"da bo'ladi¹. Bu davrda uning tafakkuri ramziy, intuitiv bo'lib, o'yin faoliyati asosiy o'rinni egallaydi. Shu bois ota-onaning bolaning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi, unga ijobiy munosabat bildirishga odatlantirishi zarur.

¹ Piaget J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1972.

Psixolog L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, bola o'z rivojida "yaqin rivojlanish zonasi" orqali yangi bilim va ko'nikmalarni kattalarning ko'magida egallaydi. Ota-onaning mehribonligi, talabchanligi va izchil ibratini bolaning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Oila tarbiyasida quyidagi jihatlardan alohida muhimdir: bolaning nutqini rivojlantirish uchun muloqotni ko'paytirish; milliy qadriyat va odob-axloqni erta yoshdan singdirish; mustaqillikka o'rgatish (kiyinish, o'yinchoqlarini yig'ishtirish, oddiy yumushlarni bajarish); mehnatsevarlik va intizomga o'rgatish. Maria Montessori o'z metodikasida "Menga o'zim qilishga imkon ber!" tamoyilini ilgari suradi. Bu tamoyil ayniqsa bog'cha yoshidagi bolalar uchun muhim bo'lib, ota-onaning ortiqcha aralashuvsiz mustaqillikni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi².

2. Maktabgacha ta'lim muassasalari - ijtimoiylashuv va bilish jarayonlari maktabi.

Bog'cha yoshidagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy munosabatlarni kengaytiradi, tengdoshlar bilan muloqot qilishni o'rganadi. A. Adler nazariyasiga ko'ra, shaxsning "ijtimoiy yo'nalganlik hissi" ilk muloqot tajribalarida shakllanadi. Shu bois bog'cha - bolaning jamiyatdagi ilk ijtimoiy maktabidir³.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining vazifalari: bolada ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish (navbat kutish, o'yinchoqni bo'lishish, jamoada ishlash); nutq, tasavvur va tafakkurni rivojlantirish; jismoniy sog'lomlashtirish mashg'ulotlari orqali motorikani kuchaytirish; estetik did va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish (rasm, qo'shiq, o'yin). Psixolog E. Eriksonning nazariyasiga ko'ra, bog'cha davri "tashabbus - aybdorlik" bosqichi hisoblanadi. Bola o'z tashabbuslarini amalga oshirishga intiladi, kattalar esa uni qo'llab-quvvatlashi yoki qattiq to'sqinlik qilishi mumkin. Agar bola tashabbuslari rag'batlantirilsa, unda faoliyatga ishonch, agar doimiy rad etilsa - aybdorlik hissi shakllanadi. Shu bois tarbiyachi va ota-onaning bolaning ijodiy harakatlarini qadrlashi muhimdir⁴.

3. Mahalla - milliy qadriyatlar va ijtimoiy tarbiya o'chog'i

Mahalla bog'cha yoshidagi bolalarning ham tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Zero, bolalar mahalla orqali qo'shnilik munosabatlari, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi qadriyatlarni amalga oshiradi. Mahallaning ijobiy tarbiyaviy ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi: diniy va milliy marosimlarda ishtirok etish orqali qadriyatlarga hurmatni shakllantirish; mahalladoshlar o'rtasidagi mehr-oqibat, yordam va hamkorlikni kuzatish orqali insonparvarlikni o'rganish; salbiy illatlardan himoyalash (nazoratchilik, jamoatchilik nazorati). Mahalla muhitidagi ijtimoiylashuv bog'cha yoshidagi bolada "biz" hissini shakllantiradi. Bu esa uning jamiyatdagi ijtimoiy roli haqida dastlabki tasavvurini hosil qiladi.

4. Oila - bog'cha - mahalla hamkorligi

Bog'cha yoshidagi bolalarni barkamol tarbiyalashda oila, maktabgacha ta'lim muassasalari va mahalla o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur.

Hamkorlikning samarali yo'nalishlari: ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish bo'yicha seminarlar; tarbiyachi va mahalla faollari ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar; oilaviy va jamoaviy o'yinlar, sport musobaqalari, bayram tadbirlarini birgalikda tashkil etish; bolalarning xulq-atvori va rivojlanishi bo'yicha uch tomonlama kuzatuv va maslahat tizimini yo'lga qo'yish.

² Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva, 1991.

³ Адлер, А. Практика и теория индивидуальной психологии / А. Адлер. — Москва : Академический Проект, 2015. — 240 с.

⁴Эриксон Э. Молодой Лютер. Психоаналитическое историческое исследование. М.: Московский философский фонд «Медиум», 1996. С. 81.

Shunday qilib, bog'cha yoshidagi bolalar tarbiyasida oila – mehr va dastlabki odob maktabi, bog'cha – ijtimoiylashuv va bilim manbai, mahalla esa qadriyatlar va jamoaviy tarbiya o'chog'i sifatida o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur.

Xulosa

Bog'cha yoshi – inson shaxsiyati rivojining poydevori. Bu davrda bola nutqi, tafakkuri, hissiy olami, ijtimoiy ko'nikmalari va axloqiy sifatlari shakllanadi. Psixolog va pedagoglarning nazariyalari ham shuni ko'rsatadiki, bolada mustaqillik, tashabbuskorlik, ijtimoiy yo'nalganlik va qadriyatlarga hurmat aynan shu davrda shakllanadi.

Shu bois barkamol shaxs tarbiyasida oila, bog'cha va mahalla birgalikda faoliyat yuritishi, ota-onalar va tarbiyachilarning pedagogik savodxonligi oshirilishi, mahalla esa ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makarenko A.S. Ota-onalarga pedagogik maslahatlar. Moskva, 1989.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva, 1991.
3. Piaget J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1972.
4. Erikson E. Childhood and Society. New York, 1963.
5. Montessori M. O'quvchi bolaning siri. Rim, 1936.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida". Toshkent, 2019.
7. Венгер А. А., Выгодская Г Л, Леонгард Э.И. Отбор детей в специальные Дошкольные учреждения. М., Просвещение, 1972 г.

INNOVATIVE
ACADEMY